

**TILNI QIYOSLAB O‘QITISHNING NAZARIY VA AMALIY AHAMIYATI**

*Ilmiy rahbar:*

*Filologiya fanlari doktori (PhD), Dotsent  
Azzamov Yusufjon Radjabboyevich  
O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti  
Ingliz filologiyasi fakulteti 2-kurs talabasi  
Murodova Nigora Xayriddinovna*

**Annotatsiya**

Ushbu maqolada tilni qiyoslab o‘qitish metodining nazariy asoslari, uning o‘quv jarayonidagi ahamiyati va samaradorligi tahlil qilinadi. Shuningdek, ingliz va o‘zbek tillarining qiyosiy jihatlari misollar asosida yoritiladi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, qiyosiy yondashuv o‘quvchilarning tilni tezroq va samarali o‘zlashtirishiga yordam beradi.

**Kalit so‘zlar:** qiyosiy tilshunoslik, til o‘qitish metodikasi, ingliz tili, o‘zbek tili, grammatika, leksika

**Annotation**

This article discusses the theoretical foundations and practical importance of comparative language teaching. It analyzes the effectiveness of this method in the learning process and provides examples comparing English and Uzbek languages. The study shows that a comparative approach enhances learners’ understanding and accelerates language acquisition.

**Key words:** comparative linguistics, language teaching, English, Uzbek, grammar, vocabulary

**Аннотация**

В данной статье рассматриваются теоретические основы и практическое значение сравнительного обучения языкам. Анализируется эффективность данного метода в образовательном процессе, а также приводятся примеры сопоставления английского и узбекского языков. Результаты исследования показывают, что сравнительный подход способствует более быстрому и эффективному усвоению языка.

**Ключевые слова:** сравнительная лингвистика, обучение языкам, английский язык, узбекский язык, грамматика, лексика

**KIRISH**

Bugungi globallashuv davrida xorijiy tillarni o‘rganish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Til o‘qitish jarayonida samarali metodlardan foydalanish o‘quvchilarning bilim darajasini oshirishda asosiy omillardan biridir. Shunday metodlardan biri — tilni

qiyoslab o‘qitish metodidir. Ushbu metod orqali o‘rganuvchilar yangi tilni o‘z ona tili bilan taqqoslab, o‘xshash va farqli jihatlarini aniqlaydi. Bu esa ularning tushunishini osonlashtiradi va xatolarni kamaytiradi.

### 1. Tilni qiyoslab o‘qitish tushunchasi va uning mohiyati

Tilni qiyoslab o‘qitish — bu o‘quvchilarga yangi tilni o‘rgatishda uni o‘z ona tili bilan taqqoslash orqali tushuntirish metodidir. Ushbu yondashuvda o‘xshashliklar (transferni osonlashtiruvchi omillar) va farqlar (xatolarga sabab bo‘luvchi jihatlar) aniqlanadi.

Bu metodning asosiy maqsadi:

- o‘quvchilarning mavjud bilimlariga tayangan holda yangi bilimni shakllantirish;
- xatolarni oldindan bashorat qilish va kamaytirish;

Masalan, o‘quvchi ingliz tilidagi gap tuzilishini o‘rganayotganda, uni o‘zbek tili bilan solishtirsa, yangi bilimni tezroq o‘zlashtiradi.

### 2. Ingliz va o‘zbek tillarining qiyosiy tahlili

#### 2.1. Grammatik tuzilish (so‘z tartibi)

O‘zbek tili agglutinativ til bo‘lib, unda gap oxirida kesim keladi. Ingliz tili esa analitik til bo‘lib, qat’iy so‘z tartibiga ega.

• O‘zbek tilida:	• Ingliz tilida:
✓ Men maktabga bordim.	✓ I went to school.
✓ U kitobni o‘qiyapti.	✓ U kitobni o‘qiyapti.
✓ Men mushuk ko‘rdim ✓ Mushuk qora	✓ I saw a cat (oddiy mushuk) ✓ The cat is black (aniq)

#### 2.2. Ko‘plik kategoriyasi

O‘zbek tilida:	Ingliz tilida:
<ul style="list-style-type: none"> <li>• kitob → kitoblar</li> <li>• bola → bolalar</li> <li>• talaba → talabalar</li> <li>• o‘qituvchi → o‘qituvchilar</li> </ul>	<ul style="list-style-type: none"> <li>• book → books</li> <li>• pen → pens</li> <li>• student → students</li> <li>• teacher → teachers</li> </ul>

❖ Ingliz tilida ba’zi so‘zlar istisno:

- man → men
- woman → women
- child → children

### 2.3. Leksik farqlar va “false friends”

Ba’zi soʻzlar oʻxshash koʻrinsa ham, maʼnosi boshqacha boʻladi.

#### Misollar:

- Magazin (uzb) ≠ Magazine (jurnal)
- Artist (ingliz) ≠ artist (sanʼatkor, lekin “artist” oʻzbekchada aktyor sifatida ishlatiladi)
- Fabric (ingliz) = mato (emas “fabrika”)
- Actually = aslida (emas “aktual”)

Bu xatolar koʻpincha toʻgʻridan-toʻgʻri tarjima qilish natijasida yuzaga keladi.

### 2.4. Feʼllar tizimi va yordamchi feʼllar

Oʻzbek tilida feʼllar qoʻshimchalar orqali oʻzgaradi, ingliz tilida esa yordamchi feʼllar katta rol oʻynaydi.

#### Misollar:

- Men boraman → I go
- Men borayapman → I am going
- Men borganman → I have gone

#### Yordamchi feʼllar:

• am / is / are	• have / has	• do / does
-----------------	--------------	-------------

### 2.5. Modal feʼllar (Modal verbs)

can → qila olmoq	must → majbur boʻlmoq	should → kerak
------------------	-----------------------	----------------

#### Gaplarda:

- I can swim → Men suza olaman
- You must study → Sen oʻqishing kerak
- You should go → Sen borishing kerak

Oʻzbek tilida bu maʼnolar koʻpincha qoʻshimchalar yoki alohida soʻzlar orqali beriladi.

### 3. Qiyosiy oʻqitishning amaliy ahamiyati

Qiyosiy metod quyidagi afzalliklarga ega:

#### 1. Xatolarni kamaytiradi

Oʻquvchi farqlarni bilgan holda kamroq xato qiladi.

#### 2. Tushunishni osonlashtiradi

Yangi bilim eski bilimga bogʻlanadi.

#### 3. Mantiqiy fikrlashni rivojlantiradi

Oʻquvchi tahlil qiladi, solishtiradi.

#### 4. Tez oʻzlashtirishni taʼminlaydi

Ayniqsa boshlangʻich bosqichda juda samarali.

### XULOSA

Tilni qiyoslab o‘qitish metodikasi zamonaviy til o‘rgatish tizimida muhim o‘rin egallaydi. Ushbu yondashuv orqali o‘quvchilar yangi tilni o‘z ona tili bilan taqqoslab o‘rganadi, bu esa ularning tushunish darajasini sezilarli darajada oshiradi. Shuningdek, qiyosiy yondashuv o‘qituvchilar uchun ham qulay metod hisoblanadi. Chunki ular o‘quvchilarning qaysi joylarda xato qilish ehtimoli yuqori ekanligini oldindan aniqlab, dars jarayonini samarali tashkil etishi mumkin.

Xulosa qilib aytganda, tilni qiyoslab o‘qitish o‘quv jarayonini samarali tashkil etish, o‘quvchilarning bilimini mustahkamlash va ularning kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirishda muhim vosita hisoblanadi. Ushbu metoddan to‘g‘ri va tizimli foydalanish natijasida til o‘rganish jarayoni ancha osonlashadi, tezlashadi va samaradorligi oshadi. Shu sababli, kelajakda til o‘qitish metodikasida qiyosiy yondashuvni yanada kengroq qo‘llash maqsadga muvofiqdir.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Swan M. *Practical English Usage*. Oxford University Press, 2005.
2. Richards J., Rodgers T. *Approaches and Methods in Language Teaching*. Cambridge, 2001.
3. Lado R. *Linguistics Across Cultures*. University of Michigan Press, 1957.
4. Karimov N., Sharipov A. *Adabiyotshunoslik asoslari*. Toshkent, 2010.
5. Jalolov J. *Chet til o‘qitish metodikasi*. Toshkent, 2012.
6. <https://www.teachingenglish.org.uk>
7. <https://www.britishcouncil.org>

